

TA'LIM SOHASIDAGI INNOVATION JARAYONLARNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Gaipova Nozima Zakirovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligining 2-sون Toshkent akademik litseyi Ingliz tili fani
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda barcha sohalardagi globallashuv jarayonlari va axborotlarning shiddat bilan kirib kelishi zamonaviy ta'limg muassasalari, shu jumladan, ta'limg muassasalarida innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarishni yo'lga qo'yishni talab etmoqda. Maqolada ta'limg sohasidagi innovation jarayonlarning mazmuni va mohiyati yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: Innovatsiya, texnologiya, ta'limg, ta'limg mazmuni, ta'limg maqsadi, ehtiyoj, motiv, ko'nikma malaka.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqariah va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi.

Ilm-fan, madaniyat va ma'rifat har qanday mamlakatni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi. Shunday ekan ta'limgning maqsadi har bir o'quvchining aniq bir kasbni (mutaxassislikni) egallashiga yo'naltirilgan bo'lsa, o'qituvchining vazifasi esa, o'quvchida shu kasbni egallashi uchun kerak bo'ladijan fanlarni, bilimlarni egallashga moyl, intilish, qiziqish-motiv hosil bo'lish uchun qulay sharoit yaratishdir. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, o'quvchilarning ongiga, tafakkuriga, ruhiyatiga to'g'ri ta'sir eta bilishi lozim. Ya'ni, har bir fanga doir qiziqarli ma'lumotlarni berishi va har bir o'quvchining qaysi bir fanga qiziqishi katta ekanligini aniqlab borishi kerak va o'zinning dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'tish yaxshi natija beradi. Ta'limg jarayonida o'quvchilarni darsga qiziqtirish va mas'uliyatini oshirishning hozirgi holatini o'rganish asosida hozirgi kunda ta'limgning zamonaviy innovatsion texnologiyalari imkoniyatlaridan to'liq foydalanimiz dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalar ta'limg jarayonining unumdarligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'limg jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasasi aniq belgilanadi, ta'limgni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Ta'limg jarayoniga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi ta'limg jarayonini yanada

sifatli tashkil etishga ta'sir ko'rsatayotgani ko'zga tashlanmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalarni ta'lism jarayoniga joriy etish, ta'lism samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Ayniqsa shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan ta'lism jarayonida foydalanish ancha samaradorli ekanligi amalda isbotlanmoqda. Shunday ta'lism texnologiyalardan biri innovatsion ta'lism texnologiyasidir.

Innovatsion ta'limganing mohiyati shundaki, o'quvchi modullar bilan ishslash jarayonida o'quv-biluv faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga mustaqil ravishda to'liq erishadi (ba'zida o'qituvchi yordamidan foydalanadi). Innovatsiyalarning ta'lism jarayoniga kundan-kunga tezlik bilan kirib kelishi tizimli yondashuv asosida o'quvchilar savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kerakligi zaruriyat qilib qo'yadi. O'quvchilarining savodxonligini oshirish maqsadida o'tkazilgan suhbatlar chog'ida hamda mакtab ichki meyoriy hujjatlarini o'rganish natijasida mazkur sohada qator kamchiliklarning mavjudligiga aniqlangan. Bu kamchiliklarni ta'lism jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilar savodxonligini oshirish sur'atining pastligi, innovatsion texnologiyalar orqali o'quvchilar savodxonligini oshirishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro aloqadorligini to'liq hisobga olinmasligi, o'quvchilar savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalar tarkibiy qismlarining tizimli ravishda olib borilmaganligi, - innovatsion texnologiyalardan tizimli, savodxonlikni oshirishga doir tashkiliy modelning mavjud emasligi va uni amalga oshirish texnologiyasining yaratilmaganligida ko'rish mumkin. Zamonaviy pedagogikaning vazifasi o'quvchilar intellektual faolligini oshirishda ta'lism jarayoniga yangiliklarni qo'llashni talab etmoqda. Chunki bugungi kunda ta'lism jarayonida yangiliklarni joriy etish yaxshi samara bermoqda.

Talim sohasidagi yangiliklar, ta'limga yangilik va o'zgartirish kiritish, mavjudlarini yaxshilash va takomillashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun har doim ham ta'lism jarayonida qandaydir o'zgarishlar sodir bo'ladi. Hozirgi davrni jamiyatning barcha sohalari kabi ta'lism sohasida ham katta va tezkor o'zgarishlar davri deb atash mumkin. Yangiliklarning turli ko'rinishlari mavjud. Yangiliklarning turlari asosan metodologik sabablarga ko'ra ajratiladi. Ta'lism sohalari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqki, bir sohadagi yangiliklar, istalgan boshqa sohada yangiliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun ta'limganing ayrim komponentlarida yangiliklarning joriy etilishi, qo'llangan yangiliklarning umumiy samaradorligini aniqlashni talab etadi.

Ta'lism jarayoni yangiliklarini tasniflashda innovatsiya inson faoliyatining muhim ko'rinishlaridan biri ekanligini hisobga olish lozim. Bu faoliyat jiddiy chegaralar va bo'linishlardan holi. Yangilikka ta'lism jarayonining hamma tushunchalari va aspektlarini kiritish va ularni bir tushunchaga mujassamlashtirish qiyin. Yangilik ta'lism mazmunini tashkil qilish jarayonida uning metodologiya va texnologiyasigasiga ta'sir qiladi. Lekin shunday bo'lsada ta'lism jarayonida qo'llaniladigan yangilikni tasniflash zarur.

Bizning fikrimizcha birinchi asosiy mezon bu yangilikning qanday muhitda joriy qilishga bog'liq. Ikkinci mezon yangilikni qo'llashning yo'llari, uchinchisi yangilik joriy qilish

tadbirlarining kengligi va chuqurligi, to'rtinchi mezon – yangilikning vujudga kelishiga sabab bo'lgan asos.

Ta'limning qaysi sohasiga yangiliklarning kiritilishi va qo'llanilishiga qarab, birinchi mezonga quyidagi yangiliklarni kiritish mumkin:

- 1) ta'lim mazmunida,
- 2) texnologiyasida,
- 3) tashkil qilishda,
- 4) boshqarish tizimida.

Yangiliklarni joriy qilishning yo'llaridan qat'iy nazar ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

- a) tizimli, rejali, oldindan o'ylangan;
- b)kutilmagan, o'z-o'zidan paydo bo'lgan, to'satdan paydo bo'lgan.

Yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar ta'lim oluvchi manfaatdorligining yuksak darajasini belgilaydi, natijada ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Faoliyatni innovatsiyalar asosida tashkil eta oladigan pedagogik kadrlar tayyorlash har doim pedagogika fanining diqqat markazida turgan muhim masalalardan bo'lgan.

Nazarda tutilgan kamchiliklarni bartaraf etish mazkur sohada alohida tadqiqot olib borishni talab etadi. Ana shu sababli o'quvchilari savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan tizimli foydalanish o'zida muhim muammoni aks ettiradi. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilar savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan tizimli foydalanish mazmunini yoritish orqali o'quvchilar savodxonligini oshirishning tashkiliy modelini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etish texnologiyasini yaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva Sh. A. "Pedagogika" – Toshkent., Fan nashriyoti. 2004 2. Qoplonova M. Pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlar.–T.: "O'qituvchi", 2005.
3. Xoliqov.A. "Pedagogik mahorat" Toshkent "Iqtisod-moliya" nashriyoti 2011.
4. P.J.Ishmuxammedov. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T. 2004.